

**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KREATIV
TA'LIM MUHITI: O'QITUVCHINING O'Z-O'ZIGA ISHONCHINI
OSHIRISH YO'LLARI**

Ahmedova Mastura Jamoliddinovna

Guliston davlat universiteti, tayanch doktorant

Tel:998997534040

Annotatsiya

Zamonaviy ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish o'quvchi shaxsini shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Biroq kreativlikni dars jarayonida real va tizimli qo'llab-quvvatlash ko'p jihatdan o'qituvchining kreativ metodlarni qo'llashga bo'lgan tayyorgarligi, motivatsiyasi hamda o'z kuchiga ishonchiga bog'liq. Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi fanlari doirasida o'qituvchilarning kreativlik bo'yicha o'z-o'ziga ishonchini Kreativlik bo'yicha o'z-o'ziga ishonchni mustahkamlash masalasi ijtimoiy-kognitiv nazariya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Bandura ko'rsatgan o'ziga ishonch manbalari asosida amaliy strategiyalar taklif etilib, maktab doirasida uchraydigan tashkiliy va psixologik cheklovlar yoritiladi. Shuningdek, mamlakatimiz ta'lim tizimida kreativ va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar hamda mahalliy pedagog olimlarning innovatsion-kreativ kompetensiyani shakllantirish haqidagi qarashlari bilan ushbu yo'nalishning uzviy bog'liqligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Kreativlik bo'yicha o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'ziga ishonch, kreativ pedagogika, ijtimoiy-kognitiv nazariya, ona tili, o'qish savodxonligi, kreativ ta'lim muhiti, o'z-o'zini baholash o'qituvchining kreativ moslashuvchanligi, innovatsion kompetensiya.

Kirish

Bugungi ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish ko'pincha "qo'shimcha

bezak” yoki faqat ayrim iqtidorli o‘quvchilarga xos sifat sifatida talqin qilinib kelgan. Aslida esa kreativ fikrlash – bu har bir o‘quvchida shakllanishi mumkin bo‘lgan, bosqichma-bosqich rivojlantiriladigan muhim ko‘nikmadir. Kreativlikni darslarda samarali qo‘llash esa, avvalo, o‘qituvchi omili bilan bevosita bog‘liq. Xususan, ona tili va o‘qish savodxonligi kabi fanlarda o‘quvchi bilan matn, talqin, muloqot, ijodiy yozuv orqali ishlash keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq bu imkoniyatlardan foydalanish o‘qituvchining kreativ yondashuvni boshqarishga tayyorligi va eng muhimi – o‘z kuchiga ishonchi bilan belgilanadi.

Shu bois, kreativlikni qo‘llab-quvvatlashning muhim shartlaridan biri sifatida o‘qituvchilarning kreativlik bo‘yicha o‘z-o‘ziga ishonchini oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kreativ muhit faqat yangi metodni bilish bilan emas, balki uni sinab ko‘rish, xatoga yo‘l qo‘yishdan qo‘rqmaslik, o‘quvchi g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, ijodiy jarayonni boshqarish kabi murakkab pedagogik holatlar bilan chambarchas bog‘liq.

Kreativlik bo‘yicha o‘z-o‘ziga ishonchini oshirish tushunchasining nazariy asoslari

Ijtimoiy- tafakkurga oid nazariyada o‘z-o‘ziga ishonch shaxsning muayyan vazifani bajarish bo‘yicha o‘z qobiliyatiga bo‘lgan sub’ektiv ishonchi sifatida izohlanadi.¹ Bandura fikriga ko‘ra, O‘z-o‘ziga ishonch shaxsning motivatsiyasi, qaror qabul qilish jarayoni, qiyinchiliklarga munosabati, qat’iyati va faoliyatga kirishish darajasini belgilovchi asosiy psixologik omillardan biridir.²

Ta’lim jarayonida bu tushuncha kengayib, Kreativlik bo‘yicha o‘z-o‘ziga ishonch– o‘qituvchining kreativ metodlarni tanlash, darsda kreativ jarayonni tashkil etish va o‘quvchilar ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlashdagi o‘z imkoniyatlariga ishonchi sifatida namoyon bo‘ladi.³ Tadqiqotlar o‘qituvchining e’tiqodlari va ishonchlari sinfdagi pedagogik qarorlar hamda metod tanlashga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi.⁴

Demak, o'qituvchining kreativlik bo'yicha o'z-o'ziga ishonchi shunchaki shaxsiy "ruhiy holat" emas, balki amaliy jihatdan dars sifati, topshiriqlar darajasi, o'quvchi erkinligi va muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omildir. Agar o'qituvchida kreativlik bo'yicha ishonch past bo'lsa, u odatda "xavfsiz" metodlarga – tayyor savol-javob, reproduktiv mashqlar, yagona javobli topshiriqlar bilan chegaralanishga moyil bo'ladi. Aksincha, ishonch yuqori bo'lsa, o'qituvchi yangicha metodlarni sinab ko'rishdan cho'chimaydi, xatoni "tajriba" va o'sish nuqtasi sifatida qabul qiladi, o'quvchini faol ijodiy hamkorga aylantira oladi.⁵

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'z-o'ziga ishonchning roli. Ona tili va o'qish savodxonligi fanlari – kreativ metodlar uchun eng qulay "maydon"lardan biridir. Chunki bu fanlarda: matnni turlicha talqin qilish; muqobil yakun yaratish; qahramon xarakterini o'zgartirib ko'rish; janr transformatsiyasi (hikoyani she'rga, dramatik sahnaga aylantirish); kreativ yozuv va refleksiya kabi faoliyatlar tabiiy ravishda dars mazmuniga singadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan metodik tajribalar va tadqiqotlarda ham ona tili hamda o'qish savodxonligi darslarida matn asosida ijodiy faoliyatlar o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, mustaqil fikrlashi, mantiqiy asoslash ko'nikmasini rivojlantirishi ko'rsatib berilgan. Jumladan, R. Mavlonovning metodik yondashuvlarida boshlang'ich ta'limda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan topshiriqlar, ijodiy izlanish hamda nutqni o'stirish vositalari ta'lim samaradorligini oshirishi ta'kidlanadi.¹¹ R. Egamova va B. Adizov kabi olimlar esa matn bilan ishlashda qayta talqin qilish, muqobil yakun tuzish, qahramon nuqtayi nazaridan hikoya qilish kabi topshiriqlar bolalarda kreativ fikrlashni qo'zg'atuvchi kuchli omil ekanini qayd etadi.¹²

Biroq o'qituvchining kreativlik bo'yicha o'ziga ishonchi past bo'lsa, quyidagi holatlar ko'proq uchraydi:

o'qituvchi matn bilan ishlashda faqat tayyor savollar beradi va o'quvchining mustaqil talqinlariga yetarlicha ishonmaydi;

ijodiy yozuv topshiriqlarida "tartib buziladi" yoki "nojo'ya g'oya

chiqib ketadi” degan xavotir kuchli bo‘ladi;

o‘quvchining noodatiy javobi ko‘pincha “xato” sifatida baholanadi, natijada ijodiy jarayon so‘nadi.

Rubenstein va boshqalarining izohiga ko‘ra, o‘qituvchining o‘ziga ishonchi yuqori bo‘lgan sinflarda erkinroq muhit shakllanadi va o‘quvchilarning noodatiy g‘oyalari “xato” emas, balki rivojlantiriladigan imkoniyat sifatida qabul qilinadi.⁶ Bu holat ona tili va o‘qish darslarida ayniqsa muhim: chunki badiiy matnlar doirasida “turlicha fikr”ning o‘zi ham ta’limiy qiymatga ega.

O‘qituvchilarda kreativ ishonchni pasaytiruvchi omillar. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘qituvchilar kreativlikni qo‘llab-quvvatlash zarurligini tushunsa ham, dars jarayonida uni keng miqyosda qo‘llashga ikkilanadi. Bunga quyidagi sabablar ta’sir qiladi:

1) Nazoratni yo‘qotishdan qo‘rquv. Ochiq topshiriqlar sinfda shovqin,

tartibsizlik, vaqtning “ketishi”ga sabab bo‘ladi, degan xavotir.

2) Vaqt cheklovi. Barcha mavzularni o‘zlashtirish va “o‘quv dasturini to‘liq bajarish” bosimi.

3) Baholashdagi noaniqlik. Kreativ jarayonni qanday o‘lchash va qanday adolatli baholash masalasi.

4) Salbiy tajriba. Oldin ijodiy topshiriq sinfda muammoli vaziyatga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.⁷

Newtonning tadqiqotlariga ko‘ra o‘qituvchilar ko‘pincha kreativlikni faqat noodatiylik deb tushunishi, moslik mezonini yetarli e’tiborga olmasligi ta’kidlanadi.⁸ Bu esa o‘quvchi g‘oyasini rivojlantirish o‘rniga tez baholab qo‘yishga olib kelishi mumkin. Natijada o‘qituvchi “g‘oyani chuqurlashtirish” o‘rniga “g‘oyani tekshirish” o‘rnida qolib ketadi.

Mamlakatimizdagi pedagogik manbalarda ham innovatsion faoliyatni tashkil

etishda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi bilan birga uning psixologik tayyorgarligi (ishonchi, motivatsiyasi, o'zgarishlarga ochiqqligi) muhimligi ta'kidlanadi. Xususan, N. Muslimov va M. Shomirzayev ilmiy qarashlarida o'qituvchi innovatsion kompetensiyasi – yangi metodlarni qabul qilish, sinovdan o'tkazish va o'z-o'zini nazorat va baholash orqali rivojlanadigan tizimli sifat sifatida izohlanadi.¹³

Bandura o'z-o'ziga ishonchni oshirishning to'rt manbasini ko'rsatadi: bevosita tajriba, tajriba almashish orqali o'rganish, ijtimoiy rag'bat va emotsional holat.² Ushbu manbalarni ona tili va o'qish savodxonligi fanlariga moslashtirish orqali o'qituvchilarning kreativlik bo'yicha o'z-o'ziga ishonchini oshirish mumkin.

Bevosita tajriba.

Eng kuchli manba – o'qituvchining o'zi muvaffaqiyatli tajriba orttirishi. Masalan, avval kichik topshiriqdan boshlash: "Hikoyaga muqobil yakun yozing", "Qahramonga yangi muammo qo'shing", "Matnga 3 xil sarlavha toping". Tajriba ijobiy bo'lsa, o'qituvchi o'zini kuchliroq his qiladi va keyingi safar murakkabroq ijodiy topshiriqlarga ham jur'at etadi. Bu jarayonda eng muhim jihat – "kichikdan kattaga" tamoyilidir.

Tajriba almashish orqali o'rganish

O'qituvchi kreativ metodni qo'llayotgan hamkasbining darsini kuzatishi, Uslubiy birlashmada tajriba almashishi ham ishonchni mustahkamlaydi. Davies va boshqalar o'qituvchilar uchun kreativlik bo'yicha kurslar va amaliy seminarlar nafaqat bilimni, balki ishonchni ham kuchaytirishini ko'rsatgan.⁹ Mahalliy amaliyotda esa ustoz-shogird an'anasi, ochiq darslar, uslubiy birlashmalar faoliyati aynan shu manbaning haqiqiy ko'rinishidir.

Ijtimoiy rag'bat

Rahbariyat, metodistlar yoki ota-onalar tomonidan o'qituvchining ijodiy yondashuvi qo'llab-quvvatlansa, u o'z harakatini qadrlangan deb his qiladi. Bu esa kreativ tashabbusni davom ettirishga undaydi. Rag'bat faqat moddiy bo'lishi shart emas: metodik kengashda e'tirof etish, dars namunalarini ommalashtirish, tajribasini tarqatishning o'zi ham ijtimoiy rag'batdir.

Emotsional-psixologik holat

Stress, xavotir va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish o'z-o'ziga ishonchni pasaytiradi. Shuning uchun o'qituvchilar kreativlikni "xato qilish mumkin bo'lgan o'quv maydoni" sifatida qabul qilishga o'rgatilishi lozim. Kreativ topshiriqda xato – bu natijaning "salbiy bahosi" emas, balki izlanishning bir bosqichi ekanini anglash o'qituvchining ichki ishonchini oshiradi.

O'qituvchining ijodiy moslashuvchanligining yangicha yondashuvi

So'nggi yillarda "o'qituvchining kreativ moslashuvchanligi" tushunchasi ilgari surilmoqda. U o'qituvchining cheklovlarga qaramay kreativ yondasha olish, sinf muammolarida ijodiy yechim topish qobiliyatini anglatadi.¹⁰ Masalan, vaqt qisqa bo'lsa ham darsda 5 daqiqalik mini-ijodiy vazifa berish; ta'lim vositalari kam bo'lsa ham guruhda og'zaki rolga kirib, sahna ko'rinishida ijro etish yoki kollaborativ hikoya tuzish. Bu yondashuv o'qituvchiga "kreativlik faqat mukammal sharoitda bo'ladi" degan qarashni yengishga yordam beradi va kreativlikni darsning tabiiy tarkibiy qismi sifatida barqarorlashti

Bugungi kunda tadqiqotchilarimiz ham ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchining innovatsion-kreativ kompetensiyalarini asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Xususan, N. Muslimov, M. Shomirzayev hamda R. Mavlonova ilmiy qarashlarida kompetensiyaviy yondashuv sharoitida o'qituvchi ijodkorligi, metodik tashabbuskorligi va innovatsion faolligi uzviy rivojlanishi zarurligi ta'kidlanadi.^{11 13}

Xulosa

O'qituvchilarning kreativlik bo'yicha o'z-o'ziga ishonchini oshirish ona tili va o'qish savodxonligi darslarida kreativ metodlarni samarali qo'llashning eng muhim shartlaridan biridir. Kreativ o'z-o'ziga ishonch kuchli bo'lganda o'qituvchi:

ijodiy jarayonni boshqarishdan cho'chimaydi;

o'quvchi g'oyalarini "xato" emas, rivojlanish nuqtasi deb ko'radi;

dars muhitini an'anaviy shakldan ijodiy hamkorlikka o'tkaza oladi.

Demak, Kreativlik bo'yicha o'z-o'ziga ishonch yuqori bo'lgan o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarda kreativ fikrlashni uyg'otuvchi va rivojlantiruvchi yetakchi pedagogga aylanadi. Bu esa ona tili va o'qish savodxonligi darslarining haqiqiy maqsadi – fikrlovchi, o'z fikrini asoslay oladigan, yangicha yondasha oladigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The Exercise of Control*. New York: Freeman.
2. Bandura, A. (1986). *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
3. Beghetto, R. A., & Kaufman, J. C. (2014). Classroom contexts for creativity. In *Creativity in the Classroom*.
4. Pajares, F. (1992). Teachers' beliefs and educational research: Cleaning up a messy construct. *Review of Educational Research*, 62(3).
5. Bryan, L. (2012). Teacher beliefs and decision-making in pedagogy.
6. Rubenstein, L. D., et al. (2013). Teachers' self-efficacy and creativity-supportive classroom environment.

7. Skaalvik, E. M., & Skaalvik, S. (2018). Teacher stress and self-efficacy.
8. Newton, D., & Newton, L. (2010). What teachers see as creative in primary education.
9. Davies, D., et al. (2013). Creative learning environments and teacher development.
10. Ritter, S. M., et al. (2020). Teacher creative resilience and adaptive expertise.
11. Mavlonova, R. A., & Rahmonqulova, N. (2009). *Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi* (o'quv qo'llanma). Toshkent: Ilm Ziyo.
12. Adizov, B. R. (2002). *Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari* (Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi). Buxoro.
13. Egamova, K. (2023). Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. *Obrazovanie, nauka i innovatsion idei v mire*, (12), 3-qism.
14. Muslimov, N. A. (2004). *Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish* (monografiya). Toshkent: Fan.
15. Muslimov, N. A., et al. (2013). *Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi* (monografiya). Toshkent: Fan va texnologiya.
16. Shomirzayev, M. X. (2021). *Texnologiya ta'limi metodikasi* (darslik). Termiz.
17. Jo'rayev R.X. *Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot*. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012.
18. Tolipov O'., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot*. — Toshkent: "Fan", 2010.